XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2023 - yil 2 - iyun VI-59-91-8-108-K/23 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumani mahalliy budjetining 2023-yil I-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli Qonunining 13-moddasiga muvofiq tuman budjetining 2023-yi I-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag’laridan foydalanish bo‘yicha Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli O’zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasiga muvofiq mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman budjetining joriy yil I-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi **1715,0** mln so‘mni tashkil etganligi hamda ushbu mablag‘lar hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflar doirasida yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’ining hisoboti tasdiqlansin.

3. Tuman budjetining joriy yil I-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan tuman hokimiyatiga internet xizmati uchun 65 000 000 (oltmish besh million) so‘m pul mablag‘lari ajratilsin.

4. Tuman budjetining joriy yil I-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borilsin.

5. “Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlanganligi yuzasidan mutasaddi tashkilotlar tomonidan xalq deputatlar tuman Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha yozma axborot berib borish yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.O.Maxmatrayemov**